

Review, 2018.

11. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age. 2014.
12. Kaplan A., Haenlein M. Business Horizons, 2019.
13. Gartner Research. Autonomous AI Agents in Enterprise Operations. 2024.

TA'LIM SIFATINI BAHOLASHNING XALQARO MODELLARI (PISA, TIMSS, PIRLS) VA ULARNI O'ZBEKISTON TA'LIMIGA MOSLASHTIRISH

Qanaqova Feruza Baxtiyor qizi
Bank Moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim sifatini baholashning xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan O'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi (PISA), Matematika va tabiiy fanlardan ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqoti (TIMSS) hamda Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash xalqaro tadqiqoti (PIRLS) dasturlarining mazmuni, metodologiyasi va ta'lim sifatini aniqlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Mazkur xalqaro baholash dasturlarining o'quvchilarning funksional savodxonligi, matematik va tabiiy-ilmiy kompetensiyalari, shuningdek, o'qish va matnni tushunish ko'nikmalarini aniqlashdagi o'rni yoritiladi.

Shuningdek, ushbu modellarning O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirilishi, milliy o'quv dasturlarini takomillashtirish, pedagogik yondashuvlarni modernizatsiya qilish va ta'lim sifatini oshirishdagi amaliy imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga asosanib, xalqaro baholash mezonlarini milliy ta'lim standartlariga integratsiya qilish, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va o'quvchilarning xalqaro reytinglardagi natijalarini yaxshilash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, xalqaro baholash dasturlari, O'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi (PISA), Matematika va tabiiy fanlardan ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqoti (TIMSS), Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash xalqaro tadqiqoti (PIRLS), funksional savodxonlik, o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, kompetensiyaviy yondashuv, O'zbekiston ta'lim tizimi, ta'lim islohotlari.

МЕЖДУНАРОДНЫЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ (PISA, TIMSS, PIRLS) И ИХ АДАПТАЦИЯ К СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Канакова Феруза Бахтиёр кизи
магистрант Банковско-финансовой академии

Аннотация: В данной статье анализируются содержание, методология и значение международных программ оценки качества образования, широко применяемых в мировой практике: Международная программа по оценке образовательных достижений учащихся (PISA), Международное исследование качества математического и естественно-научного образования (TIMSS) и Международное исследование уровня чтения и понимания текста учащимися начальной школы (PIRLS). Рассматривается роль этих международных программ оценки в определении функциональной грамотности учащихся, их математических и естественно-научных компетенций, а также навыков чтения и понимания текста.

Кроме того, изучаются возможности адаптации данных моделей к системе образования Узбекистан, совершенствования национальных учебных программ, модернизации педагогических

подходов и повышения качества образования. На основе результатов исследования разработаны научно-практические рекомендации по интеграции международных критериев оценки в национальные образовательные стандарты, развитию профессиональных компетенций педагогов и улучшению результатов учащихся Узбекистан в международных рейтингах.

Ключевые слова: качество образования, международные программы оценки, Международная программа по оценке образовательных достижений учащихся (PISA), Международное исследование качества математического и естественно-научного образования (TIMSS), Международное исследование уровня чтения и понимания текста учащимися начальной школы (PIRLS), функциональная грамотность, читательская грамотность, математическая грамотность, естественно-научная грамотность, компетентностный подход, система образования Узбекистан, реформы в сфере образования.

INTERNATIONAL MODELS FOR ASSESSING THE QUALITY OF EDUCATION (PISA, TIMSS, PIRLS) AND THEIR ADAPTATION TO THE EDUCATIONAL SYSTEM OF UZBEKISTAN

Kanakova Feruza Baxtiyor kizi

Master's student of the Banking and Finance Academy

Abstract: This article analyses the content, methodology and significance of internationally recognised educational assessment frameworks such as the Programme for International Student Assessment (PISA), Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) and Progress in International Reading Literacy Study (PIRLS). It highlights the role these international assessments play in measuring students' functional literacy, mathematical and scientific competence, as well as reading comprehension skills. Additionally, the article explores opportunities to adapt these models to Uzbekistan's education system, improve national curricula, update pedagogical approaches and enhance overall educational quality. Based on the research findings, practical recommendations are proposed for integrating international assessment criteria into national educational standards, developing teachers' professional competencies and improving Uzbekistan's students' performance in international rankings.

Keywords: quality of education, international assessment programmes, Programme for International Student Assessment (PISA), Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS), Progress in International Reading Literacy Study (PIRLS), functional literacy, reading literacy, mathematical literacy, scientific literacy, competence-based approach, educational system of Uzbekistan, educational reform.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim sifati har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, innovatsion salohiyati va xalqaro raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylandi. Zamonaviy jamiyatda inson kapitalini rivojlantirish, ilm-fan va texnologiyalarni jadal sur'atlarda o'zlashtirish, mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga moslashish ta'lim tizimining samaradorligiga bevosita bog'liq. Shu sababli dunyoning ko'plab mamlakatlarida ta'lim sifatini obyektiv baholash, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini xalqaro mezonlar asosida tahlil qilish hamda ta'lim siyosatini ilmiy dalillarga tayangan holda takomillashtirish ustuvor vazifaga aylangan.

Jahon miqyosida ta'lim natijalarini qiyosiy baholashning eng nufuzli mexanizmlari sifatida o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi (PISA), Matematika va tabiiy fanlardan ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqoti (TIMSS) hamda Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash xalqaro tadqiqoti (PIRLS) keng qo'llanilmoqda. Mazkur dasturlar o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki real hayotiy vaziyatlarda bilimlardan foydalanish, tahliliy va tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va axborot bilan ishlash

ko'nikmalarini ham baholaydi. Natijada davlatlar o'z ta'lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish va ta'lim siyosatini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uning sifatini xalqaro standartlar asosida oshirish va o'quvchilarning global baholash dasturlaridagi natijalarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatda umumiy o'rta ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish hamda xalqaro baholash tadqiqotlarida faol ishtirok etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon O'zbekistonning ta'lim sohasidagi xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamlash va yosh avlodning global mehnat bozorida muvaffaqiyatli raqobatlashishiga xizmat qiladi.

PISA, TIMSS va PIRLS tadqiqotlarining O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirilishi nafaqat o'quv dasturlarini takomillashtirish, balki baholash tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim jarayonining natijadorligini oshirish va ta'lim boshqaruvida ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu xalqaro modellarning mazmuni va metodologiyasini chuqur o'rganish, ularni milliy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari bilan uyg'unlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Asosiy qism. Ta'lim sifatini baholashning xalqaro modellari: nazariy va metodologik asoslar.

Ta'lim sifatini baholash zamonaviy pedagogika va ta'lim menejmentining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim sifati o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarining davlat va xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasi bilan belgilanadi. XXI asrda iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida inson kapitalining roli ortib borayotgani ta'lim natijalarini aniq va ishonchli baholashni talab etmoqda. Shu sababli xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan baholash dasturlari ta'lim tizimlarining samaradorligini solishtirish, muammolarni aniqlash va rivojlanish strategiyalarini belgilashda muhim vositaga aylandi. O'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi (PISA). Programme for International Student Assessment 15 yoshli o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda bilimlardan foydalanish qobiliyatini baholaydi. Tadqiqot Organisation for Economic Co-operation and Development tomonidan har uch yilda bir marotaba tashkil etiladi. PISA o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha funksional savodxonlikni aniqlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning faktlarni yodlash darajasidan ko'ra, bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini o'lchaydi. Matematika va tabiiy fanlardan ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqoti (TIMSS). Trends in International Mathematics and Science Study 4 - va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan tayyorgarlik darajasini baholaydi. Tadqiqot International Association for the Evaluation of Educational Achievement tomonidan to'rt yilda bir marta o'tkaziladi. TIMSS o'quvchilarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda, ularni qo'llash va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini ham aniqlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash xalqaro tadqiqoti (PIRLS). Progress in International Reading Literacy Study 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi va matnni tushunish ko'nikmalarini baholashga qaratilgan. Tadqiqot International Association for the Evaluation of Educational Achievement tomonidan besh yilda bir marta amalga oshiriladi. PIRLS natijalari o'qish madaniyati, oilaviy muhit va maktab sharoitining o'quvchilarning o'qish ko'nikmalariga ta'sirini aniqlashga imkon beradi.

O'zbekiston tajribasida olib borilgan tadqiqotlar. O'zbekistonda ta'lim sifatini xalqaro mezonlar asosida baholash bo'yicha ilmiy va tashkiliy ishlar, avvalo, normativ-huquqiy asoslarning yaratilishi bilan boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi. Mazkur qaror O'zbekistonning Programme for International Student Assessment, Trends in International Mathematics and Science Study, Progress in International Reading Literacy Study va TALIS tadqiqotlarida tizimli ishtirok etishini yo'lga qo'ydi.

Milliy markaz tomonidan 2019-2025-yillar davomida xalqaro baholash dasturlarining metodologiyasini milliy ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borildi.

Ushbu tadqiqotlar doirasida o'quvchilarning funksional savodxonligi, o'qish kompetensiyasi, matematik tafakkuri va tabiiy-ilmiy fikrlash ko'nikmalarini aniqlashga qaratilgan diagnostik materiallar ishlab chiqildi. Shuningdek, PISA va TIMSS formatidagi topshiriqlarni milliy o'quv dasturlariga integratsiya qilish bo'yicha metodik tavsiyalar tayyorlandi.

Milliy markaz va ilmiy-metodik muassasalar tadqiqotlari. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tomonidan chop etilgan metodik qo'llanmalarda xalqaro baholash topshiriqlarining tuzilishi, kompetensiyaviy yondashuv va baholash mezonlari ilmiy asosda sharhlangan. Mazkur materiallar asosida o'qituvchilarning xalqaro tadqiqotlar bo'yicha metodik kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha ko'plab seminarlar o'tkazildi.

Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tadqiqotlarida o'qituvchilarning xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarligi va dars jarayonida PISA uslubidagi topshiriqlardan foydalanish samaradorligi o'rganilgan. Natijalarga ko'ra, xalqaro formatdagi topshiriqlardan muntazam foydalanish o'quvchilarning tahliliy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilashi aniqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturida funksional savodxonlik, kompetensiyaviy yondashuv va natijaga yo'naltirilgan baholash tamoyillari asosiy metodologik yo'nalish sifatida belgilandi. Bu esa xalqaro tadqiqotlar talablarining ta'lim mazmuniga tizimli integratsiyasini ta'minladi.

Mahalliy olimlar tadqiqotlari. So'nggi yillarda o'zbekistonlik olimlar tomonidan xalqaro baholash dasturlarining nazariy va amaliy jihatlarini keng o'rganilmoqda. Xodjayev va Abdurahmonov (2021) o'z tadqiqotlarida PISA, TIMSS va PIRLS dasturlarining metodologik asoslarini tahlil qilib, ularning milliy baholash tizimini takomillashtirishdagi rolini ko'rsatgan. Nabiye (2025) O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro baholash mezonlariga moslashtirishning nazariy va amaliy yo'nalishlarini tahlil qilib, o'qituvchilar malakasini oshirish va funksional savodxonlikni rivojlantirishning ustuvorligini asoslab bergan. Xudayberdiyeva (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xalqaro baholash dasturlarini joriy etishning me'yoriy-huquqiy asoslari, institutsional mexanizmlari va pedagogik ahamiyati yoritilgan. U xalqaro tadqiqotlarning natijalari ta'lim sifatini boshqarishda ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini berishini ta'kidlaydi.

O'zbekiston tajribasini tahlil qilish quyidagi ilmiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik mustahkam normativ-huquqiy asoslar bilan ta'minlangan.
2. Milliy markaz va ilmiy-metodik muassasalar tomonidan metodik va diagnostik resurslar shakllantirilgan.
3. Milliy o'quv dasturi kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilanib, xalqaro standartlarga yaqinlashtirilgan.
4. O'qituvchilarning metodik kompetensiyasini oshirish bo'yicha uzluksiz malaka oshirish tizimi yo'lga qo'yilgan.
5. Tadqiqotlar funksional savodxonlikni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning asosiy omili ekanini tasdiqlaydi.

O'zbekistonda olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar xalqaro baholash dasturlarini milliy ta'lim tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun zarur metodologik, institutsional va pedagogik asoslarni shakllantirdi. Mazkur tadqiqotlar natijalari ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, baholash tizimini takomillashtirish va o'quvchilarning xalqaro tadqiqotlardagi natijalarini yaxshilashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

1-Jadval. Jahon va O'zbekiston tajribasida olib borilgan tadqiqotlar tahlili

Muallif/Tashkilot	Asosiy manba	Tadqiqot yo'nalishi	Asosiy xulosa
Andreas Schleicher	World Class (2018)	PISA va ta'lim siyosati	Funksional savodxonlik iqtisodiy raqobatbardoshlikning muhim omili.
Organisation for Economic Co-operation and Development	PISA 2022 Results	Xalqaro qiyosiy baholash	Kompetensiyaviy yondashuv yuqori natijalarni ta'minlaydi.
International Association for the Evaluation of Educational Achievement	TIMSS 2023, PIRLS 2021	Matematika, tabiiy fanlar va o'qish savodxonligi	Erta ta'lim sifati keyingi muvaffaqiyatga kuchli ta'sir ko'rsatadi.
John Hattie	Visible Learning (2009)	Baholashning ta'siri	Formativ baholash va teskari aloqa eng samarali omillardandir.
Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi	Metodik qo'llanmalar	O'zbekistonning xalqaro baholashlarga tayyorgarligi	Milliy metodik baza shakllantirilmoqda.
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti	Malaka oshirish dasturlari	O'qituvchi kompetensiyasi	Pedagoglarni xalqaro baholash metodologiyasiga tayyorlash muhim.

Xulosa. Ta'lim sifatini baholashning xalqaro modellari - O'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi (PISA), Matematika va tabiiy fanlardan ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqoti (TIMSS) hamda Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash xalqaro tadqiqoti (PIRLS) - zamonaviy ta'lim tizimlarining samaradorligini aniqlash va ularni takomillashtirishning ishonchli ilmiy vositalari hisoblanadi. Mazkur dasturlar o'quvchilarning faqat fan bo'yicha bilim darajasini emas, balki ularning funksional savodxonligi, tanqidiy va mantiqiy fikrlashi, muammolarni hal etish hamda real hayotiy vaziyatlarda bilimlardan samarali foydalanish ko'nikmalarini baholashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan ular XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim siyosatini ishlab chiqish va baholashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, PISA, TIMSS va PIRLS natijalaridan samarali foydalanayotgan Singapur, Finlandiya, Estoniya, Kanada va Yaponiya kabi davlatlarda ta'lim siyosati ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tamoyillari asosida shakllantirilgan. Ushbu mamlakatlarda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv dasturlari, o'qituvchilarning yuqori kasbiy tayyorgarligi, formativ baholash tizimi va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar yuqori natijalarni ta'minlagan. Bu holat xalqaro baholash dasturlari natijalarini ta'lim tizimini strategik rivojlantirishning muhim indikator sifatida qo'llash zarurligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston tajribasi tahlili mamlakatda xalqaro baholash dasturlarini joriy etish bo'yicha izchil institutsional va ilmiy-amaliy ishlar olib borilayotganini ko'rsatadi. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti hamda boshqa ilmiy-metodik muassasalar tomonidan metodik qo'llanmalar, diagnostik materiallar va malaka oshirish dasturlari ishlab chiqildi. Milliy o'quv dasturining kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilanishi, funksional savodxonlikka yo'naltirilgan topshiriqlarning joriy etilishi va o'qituvchilarning metodik tayyorgarligining kuchaytirilishi xalqaro standartlarga moslashuvning amaliy natijasi bo'ldi.

Tahlil qilingan tadqiqotlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, xalqaro baholash dasturlarini O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirish quyidagi ustuvor yo'nalishlarni izchil amalga oshirishni talab etadi: birinchidan, o'quv dasturlari va darsliklarni PISA, TIMSS va PIRLS kompetensiyalariga mos ravishda takomillashtirish; ikkinchidan, o'qituvchilarning funksional savodxonlik va zamonaviy baholash metodlari bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish; uchinchidan, milliy baholash tizimini xalqaro metodologiyalar bilan uyg'unlashtirish; to'rtinchidan, hududlar kesimida ta'lim sifati monitoringini kuchaytirish; beshinchidan, ota-onalar va jamiyatni ta'lim sifatini oshirish jarayoniga faol jalb etish.

Demak, xalqaro baholash modellari O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish, ta'lim boshqaruvini ilmiy asoslash, o'quvchilarning xalqaro reytinglardagi natijalarini yaxshilash va raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishning muhim strategik vositasi hisoblanadi. Ularni milliy ta'lim tizimiga chuqur integratsiya qilish mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, innovatsion rivojlanishi va global bilimlar makonida munosib o'rin egallashini ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-5085887>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-4097073>
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. PISA, TIMSS va PIRLS bo'yicha metodik qo'llanmalar. – Toshkent, 2021–2025.
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Milliy o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.
5. Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti. Xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik bo'yicha o'quv-metodik materiallar. – Toshkent, 2023.
6. Organisation for Economic Co-operation and Development. PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 390 p.
7. Organisation for Economic Co-operation and Development. PISA 2022 Results (Volume II): Learning During and Beyond Disruption. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 350 p.
8. International Association for the Evaluation of Educational Achievement. PIRLS 2021 International Results in Reading. – Chestnut Hill, MA; Amsterdam: TIMSS & PIRLS International Study Center; International Association for the Evaluation of Educational Achievement, 2023. – 420 p.
9. International Association for the Evaluation of Educational Achievement. TIMSS 2023 International Results in Mathematics and Science. – Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, 2024. – 500 p.
10. Schleicher, Andreas. World Class: How to Build a 21st-Century School System. – Paris: OECD Publishing, 2018. – 297 p.

XALQARO LOYIHALARDA KOMMUNIKATSIYA RISKLARINI KAMAYTIRISHDA INGLIZ TILI ASOSIDA SAMARALI ALOQA TIZIMINI SHAKLLANTIRISH

Zoxirova Aziza Soxib qizi

Bank Moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro loyihalarda yuzaga keladigan kommunikatsiya risklarini kamaytirishda ingliz tilining universal ishchi til sifatidagi o'rni tahlil qilinadi. Turli madaniyat va tillarga